



## **LUG‘ATLARNING TUZILISH TAMOYILLARINI O‘RGANISH**

**Sog‘inboyeva Shahzoda**

Namangan davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lug‘at tushunchasining mazmun-mohiyati, lug‘atchilikning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Unda lug‘atlarning asosiy turlari — izohli, tarjima, etimologik, imlo, orfoepik, morfem, tarixiy, dialektal va ensiklopedik lug‘atlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, o‘zbek lug‘atchiligi tarixidagi muhim asarlar — Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” hamda zamonaviy izohli lug‘atlar misolida milliy leksikografiyaning shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada o‘zbek tilining lug‘aviy boyligini tartibga solish, me’yorlashtirish va rivojlantirishda lug‘atlarning o‘rni va ahamiyati ham ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘z:** Lug‘at, leksikografiya, o‘zbek tili, izohli lug‘at, tarjima lug‘at, etimologik lug‘at, imlo lug‘at, orfoepik lug‘at, Mahmud Koshg‘ariy, leksika, tilshunoslik.

## **STUDYING THE PRINCIPLES OF DICTIONARY COMPILATION**

**Sog‘inboyeva Shahzoda**

Student of Namangan State University

**Abstract:** This article examines the essence of the concept of a dictionary, the origins of lexicography, and its historical stages of development. It provides information about the main types of dictionaries — explanatory, translation, etymological, spelling, orthoepic, morphemic, historical, dialectal, and encyclopedic. The article also analyzes the formation process of national lexicography through important works in the history of Uzbek lexicography, such as Mahmud al-Kashgari’s “Devonu lug‘otit turk”, Mahmud Zamakhshari’s “Muqaddimat ul-adab”, and modern explanatory dictionaries. Furthermore, the role and significance of dictionaries in organizing, standardizing, and enriching the lexical wealth of the Uzbek language are highlighted.

**Keywords:** Dictionary, lexicography, Uzbek language, explanatory dictionary, translation dictionary, etymological dictionary, spelling dictionary, orthoepic dictionary, Mahmud al-Kashgari, lexicon, linguistics.

«Lug‘at» arabcha so‘z bo‘lib, til, sheva, lahja, so‘z, ibora kabi ma’nolarni bildiradi. Hozirgi kunda ushbu so‘z ikki ma’noda: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, ya’ni leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va sh.k.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma’nolari, yozilishi



(imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma'lumotlar jamlangan kitob ma'nolarida qo'llanadi. <sup>1</sup>Ana shu ikkinchi ma'nodagi lug'atlar ma'naviy madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, chunki ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi<sup>2</sup>. Lug'atlar, shuningdek, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: muayyan voqea-hodisa haqida o'quvchiga ma'lumot beradi; uni o'z ona tilidagi va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish, me'yorlashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Lug'atlar juda qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Ushbu fikrning isboti sifatida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni», XI asr), Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» («Adab ilmi muqaddimasi», XII asr) asarlarini eslatib o'tish kifoya qilsa kerak. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, Yevropada, xususan, Rossiyada lug'atlarga, lug'atlar tuzishga bo'lgan jiddiy munosabat XVII asrdan boshlanib, Rossiyadagi dastlabki haqiqiy izohli lug'at ham ana shu davrda paydo bo'lgan<sup>3</sup>. Hozirgi kunda lug'atlar ma'lumot-axborot to'plash va uni o'quvchiga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.<sup>4</sup>

O'z qamrovi, maqsadi, vazifasi va tavsif usuliga ko'ra lug'atlarning turlari rang-barangdir. So'zni tavsiflashdagi bir qancha farqli xususiyatlariga ko'ra, lug'atlarni asosan ikki turga: ensiklopedik va lingvistik (filologik) lug'atlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, har bir turdagi lug'at, hajmiga ko'ra katta, o'rtacha, kichik; qamrab olgan materialining oz-ko'pligi va ishlanishiga qarab to'liq va qisqa bo'lishi mumkin<sup>5</sup>. Ensiklopedik lug'at so'zlarning o'zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi. Lingvistik lug'atlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan so'zning ma'nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Lingvistik lug'atlar leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usullari nuqtai nazaridan bir qancha turlarga bo'linadi:<sup>6</sup>

1. So'zlarning ma'nolari, qo'llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi izohli lug'at. O'zbek leksikografiyasi tarixida dastlabki bir tilli katta lug'at - ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» ustida katta tajribaga ega bo'lgan lug'atchilar guruxi 20 yil davomida jonbozlik bilan ish olib bordi va bu lug'at 1981-yilda Z. Ma'rufov tahriri ostida nashr etildi. Nihoyat, 2006 - 2008 yillarda besh jildidan iborat «O'zbek tilining izohli lug'ati» ham nashr etildi.. Endilikda O'zbekistonda lug'atchilik, shu jumladan, ikki tilli lug'atlar tuzish sohasida amalga oshiriladigan barcha muhim va yirik ishlar, tashabbuslar milliy tilning katta izohli

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.

<sup>2</sup> Гак В.Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва, 1990.- С. 462.

<sup>3</sup> Будашов Р. А. Толковые словари в национальной культуре народов. - Москва, 1989.- С. 8 и 149.

<sup>4</sup> Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.

<sup>5</sup> Ақобиров С. Нутқ маданияти ва норматив луғат. - Тошкент: Ўзбекистон, 1977.-Б. 23-24.

<sup>6</sup> Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.



lugʻati bilan, V.G.Gakning taʼbiri bilan aytganda, «lugʻatning eng muhim, asosiy turi»<sup>7</sup> bilan bogʻliq boʻladi. Chunki yangi izohli lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tilida nisbatan keng isteʼmolda boʻlgan 80 mingdan ortiq soʻz va soʻz birikmalarini, jumladan, fan, texnika, sanʼat va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevalarda qoʻllanadigan soʻzlarni, baʼzi tarixiy va eskirgan atamalarni qamrab olgan, ular talab darajasida izohlangan.

2. Muayyan tilga oʻzlashgan, lekin oʻzlashmaligi sezilib turgan boshqa til soʻz va terminlarini tushuntirib beruvchi xorijiy soʻzlar lugʻati

3. Bir tilga oid lugʻaviy birliklarni boshqa tilga oʻgirib, izohlab beruvchi tarjima lugʻatlari - oʻzbek leksikografiyasida keng tarqalgan, qadimdan maʼlum lugʻat turi. XIX asrgacha arab-oʻzbek, fors-oʻzbek, turk-oʻzbek ikki tilliliga asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lugʻatlari mavjud boʻlgan boʻlsa [«Devonu lugʻotit turk», «Muqaddimatul adab», «Abushqa» oʻzbekcha-turkcha izohli lugʻati (XVI asr, Turkiya), Toli Imoni Hiraviyning «Badoe ul-lugʻat» oʻzbekcha-forscha lugʻati (XVI asr boshi, Hirot), Xoksorning «Muntaxab ul-lugʻat» forscha-oʻzbekcha (XVIII asr oxiri, Xiva), Mirzo Mahdiyxonning «Sanglox» oʻzbekcha-forscha lugʻati (XVIII asr, Eron), Sulaymon Buxoriyning «Lugʻati chigʻatoiy va turki usmoniy» (XIX asr, Turkiya) asari va b.], XX asrda ular qatoriga mazkur tillar bilan birga ingliz, nemis, fransuz, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lugʻatlar ham qoʻshildi [Nemischa-oʻzbekcha lugʻat, 1964; Oʻzbekcha-nemischa lugʻat, 1967; Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat, 1968; Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat, 1969; Arabcha-oʻzbekcha lugʻat, 1986; Hindiycha-oʻzbekcha lugʻat, 1987; Ispancha-oʻzbekcha lugʻat, 1977; Oʻzbekcha-forscha oʻquv lugʻati, 1975, 1984; Forscha-oʻzbekcha lugʻat, 2006; Inglizcha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-inglizcha lugʻat, 2006, 2007, 2013; Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat (A. Zohiriy, 1927), Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻat (K.Yudaxin, 1927), bir jildli ruscha-oʻzbekcha lugʻat, 1954; besh jildli ruscha-oʻzbekcha lugʻat, 1950 - 1955; bir jildli oʻzbekcha-ruscha lugʻat, 1959, 1988; ikki jildli ruscha-oʻzbekcha lugʻat, 1983-1984; shu lugʻatning tuzatilgan, toʻldirilgan nashri, 2013 va b.].

4. Soʻzlarning qachondan eʼtiboran shu tilda qoʻllana boshlagani, uning fonetik, grammatik, semantik belgilarini taraqqiyotini koʻrsatib beruvchi tarixiy lugʻat.<sup>8</sup>

5. Tilning lahja va shevalariga xos boʻlgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi soʻzlardan farq qiladigan soʻzlarni koʻrsatuvchi dialektal (sheva) lugʻat (F. Abdullaev. Xorazm shevalari. 1-qism. Lugʻat, 1961; Oʻzbek xalq shevalari lugʻati, 1971; S. Ibroximov. Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi va b.).

6. Soʻzning kelib chiqishini, manba tildagi maʼnosini, tarkibiy tuzilishini, tovush yoki maʼno jihatdan oʻzgarishini koʻrsatib beruvchi etimologik lugʻat

<sup>7</sup> Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) // Актуальные проблемы учебной лексикографии. - Москва, 1977.- С. 12.

<sup>8</sup> Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002



[Sh.Rahmatullaev, O'zbek tilining etimologik lug'ati (1-kitob: turkiy so'zlar, 2000; 2-kitob: arab so'zlari, 2003; 3-kitob: forsha-tojikcha birliklar, 2009)].<sup>9</sup>

7. Bir oilaga mansub tillardagi so'z boyligini solishtirib, taqqoslab, ulardagi tafovut qonuniyatlarini o'rganish maqsadida tuziladigan qiyosiy lug'atlar (bunday lug'atning dastlabki namunasi M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari hisoblanadi<sup>10</sup>;

8. So'zlarning mavjud imlo qoidalariga binoan to'g'ri yozilish shakllarini qayd etuvchi imlo lug'ati (1929 yildan hozirgi kungacha kirill va lotin alifbolariga asoslangan o'zbek yozuvida o'zbek tilining turli hajmdagi 20 dan ortiq imlo lug'ati tuzilgan; 65 mingdan ortiq so'z va so'zshakllarni qamrab olgan katta hajmli o'zbek tilining imlo lug'ati 1975 yilda, 85000 dan ortiq so'z va so'zshakllarni qamrab oluvchi eng mukammal imlo lug'ati 2013 yilda nashr etilgan. Bundan tashqari, o'zbek imlosidagi ba'zi qiyin holatlarga oid, xususan H va X harflari ishtirok etgan so'zlar bo'yicha tuzilgan imlo lug'atlari ham mavjud.

9. So'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladigan talaffuz (orfoepik) lug'ati (M. Sodiqova, O'. Usmonova. O'zbek tilining orfoepik lug'ati, 1977; E. Begmatov va b. O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati, 1984).

10. Muayyan tildagi so'zlarning morfem tuzilishini ko'rsatuvchi morfem lug'at (A. G'ulomov va b. O'zbek tilining morfem lug'ati, 1977).

Xulosa qilib aytganda, lug'atchilik insoniyatning eng qadimiy ilmiy-amaliy faoliyat turlaridan biri sifatida tilning boyligini saqlash, rivojlantirish va me'yorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek lug'atchiligi ham ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning ildizlari Mahmud Koshg'ariy va Mahmud Zamaxshariy asarlarigacha borib taqaladi. Mustaqillik yillarida esa izohli, tarjima, imlo va etimologik lug'atlar nashri orqali o'zbek leksikografiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Lug'atlar nafaqat ilmiy va ta'limiy ahamiyatga ega, balki milliy madaniyat va tafakkur rivojining ham muhim ko'rsatkichidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Тошкент, 2009. - Б. 107.
2. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
3. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.

<sup>9</sup> Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.

<sup>10</sup> Л. Будагов. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий . 1869.



4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашииинг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
7. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б.
- 87.
8. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.
10. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
11. Убайдуллаев А. Ҳиндистонда яратилган туркий луғат // Til va adabiyot ta'limi, № 3 2010.
12. Ғаниева С. Техрон китобхоналаридаги Навоий асарларининг қўлёзмалари // ЎТА, №4,1991.